

Surxondaryoda 622 nafar bolajonlarga “Prezident sovg’asi” topshirilmoqda



Bugun yurtimizning barcha hududlarida bo’lgani kabi viloyatimiz shahar va tumanlarida ham “Prezident archasi” teatrlashtirilgan bayram tomoshalari boshlandi.

Xususan, Termiz shahridagi “Grand Almaz” tantanalar saroyida o’tkazilgan bayram tadbiri shukuhli va esda qolarli voqealarga boy bo’ldi. Unda Oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilari, ota-onalarning qarobanligi hamda Vatanimiz tinchligi va xavfsizligi yo’lida qurbon bo’lgan yurtdoshlarimizning farzandlari ishtirok etdi.

Tadbirda so’zga chiqqan Surxondaryo viloyati hokimi To’ra Bobolov bolajonlarni Yurtboshimiz nomidan Yangi yil bayrami bilan tabriklab, kichkintoylarga shirinliklar, o’quv qurollari, bolalar entsiklopediyasi hamda jihozlar kiritilgan “Prezident sovg’asi”ni topshirdi.

Viloyatda Mehribonlik va Oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilari, Vatan sarhadlarini himoya qilishda jonini fido qilgan yurtdoshlarimiz hamda boquvchisini yo’qotgan oilalarining 3 yoshdan 15 yoshgacha bo’lgan 622 nafar farzandlariga viloyat hokimligi, tuman hokimliklari, xalq ta’limi boshqarmasi hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirokida “Prezident sovg’asi” topshirilmoqda.

https://t.me/axborot_xizmati